NOVA: GLOBAL SCIENTIFIC RESEARCH
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
Volume 1 | Issue 3 (September, 2026)

O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” VA “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARLARIDA URUSH MAVZUSINING BADIIY TALQINI

Tog‘ayeva Dilnigora Mavlon qizi
Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi 3 - bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.22749772

Annotatsiya. *O‘zbek xalqining qalbida jo‘sh urib turgan farzandi bu O‘tkir Hoshimov desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘tkir Hoshimov qalami o‘tkir, zabardast yozuvchidir. O‘tkir Hoshimov har doim o‘zining yozgan asarlari bilan xalqimiz kitobxonlari qalbidan chuqur joy egallagan. Shu sababli, u o‘zining asarlarida umuminsoniy muammolarni badiiy yo‘l bilan ochib berishga harakat qilgan..Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “ Ikki eshik orasi ” va “ Tushda kechgan umrlar ” asarlarida bosh mavzu bo‘lgan, urush mavzusining badiiy talqini haqida so‘z yuritilgan. Asar voqelarining makon va zamon xususiyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Robiya, Ra’no, Kimsan. Xusan Duma, Orif oqsoqol, asar, makon va zamon, qonli urush, insonparvarlik, to‘qqizta personaj hikoyasi, tushda kechgan umrlar, ijtimoiy muhit, hayotiy sinovlar, batal atamasi, urushning ijtimoiy ta’siri.*

Abstract. *It is no exaggeration to say that O‘tkir Hoshimov is a writer who holds a cherished place in the hearts of the Uzbek people. He is a formidable author with a keen, powerful pen. Through his literary works, Hoshimov has always secured a deep connection with the reading public; consequently, he strove to artistically explore universal human issues within his writing.*

*This article examines the artistic interpretation of the theme of war—a central subject—in Hoshimov’s works *Ikki Eshik Orasi* (Between Two Doors) and *Tushda Kechgan Lives* (Lives Lived in a Dream). It also analyzes the spatial and temporal characteristics of the events depicted in these works.*

Keywords: *Robiya, Ra’no, Kimsan, Xusan Duma, Orif Oqsoqol, literary work, time and place, bloody war, humanity, stories of nine characters, lives lived in dreams, social environment, life trials, the term "battalion," social impact of war.*

Аннотация. *Без преувеличения можно сказать, что Уткир Хашимов занимает особое место в сердцах узбекского народа. Это выдающийся писатель, обладающий ярким и мощным талантом. В своем творчестве Хашимов всегда стремился к глубокой связи с читательской аудиторией, художественно осмысливая общечеловеческие проблемы. В данной статье рассматривается художественное воплощение темы войны — одной из центральных тем — в произведениях Хашимова «Между двумя дверями» (*Ikki Eshik Orasi*) и «Жизнь, прожитая во сне» (*Tushda Kechgan Lives*). Также анализируются пространственно-временные характеристики событий, изображенных в этих произведениях.*

Ключевые слова: *Робия, Раъно, Кимсан, Хусан Дума, Ориф Оксакал, литературное произведение, время и место действия, кровопролитная война, человечность, истории девяти персонажей, жизнь в мечтах, социальная среда, жизненные испытания, термин «батальон», социальные последствия войны.*

Kirish

O‘tkir Hoshimov XX asr o‘zbek prozasining yirik vakillaridan biri bo‘lib, o‘z asarlarida turli insoniy munosabatlarni badiiy mahorat bilan ifodalagan yozuvchidir. Adib o‘ndan ortiq qissa

va romanlar, o‘nlab hikoyalar, bir necha pyesalar yaratgan. O‘tkir Hoshimovning “Urushning so ‘nggi qurboni ”, “Muhabbat”, “Oq bulut,oppoq bulut”, “O‘zbeklar” kabi hikoyalari; “Qatag‘on”, “Inson sadoqati”, “To‘ylar muborak” kabi pyesalari: “Cho‘l havosi”, “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki – besh “ , “Qalbingga quloq sol” singari qissalari; “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” kabi romanlari bilan o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan munosib xissa bo‘ldi. O‘tkir Hoshimov qissalari 60 – 70 – yillar milliy adabiyotimizdagi ilg‘or tamoyillar bilan uyg‘unligi, o‘sha paytdagi ma’naviy - axloqiy muammolarni o‘rtaga olib chiqanligi, eng muhimi, tasvirdagi samimiyat, ichki jozibasi bilan ajralib turaganligini ko‘rishimiz mumkin. O ‘tkir Hoshimov ijodga qadam qo‘ygan yillarga kelib mustabid tuzum davri undagi zug ‘umlar biz oz yumshagan, jamiyatni demokratlashtirish boshlangan, erkin fikrlarga qisman yo‘l berilgan edi. Biroq minbarlarda , ilm – fan, radio, televideniye, matbuotda bor haqiqatni aytish imkoniyati hamon cheklangandi. Bunday paytda jamiyatning vijdoni, mehnatkash xalqning ovozi bo‘lish vazifasi adabiyotsevar, so‘z ustalarining zimmasiga tushdi. A.Qahhor, O.Yoqubov, P.Qodirov, ular izidan borgan E.Vohidov, A.Oripov, Sh.Xolmirzayev adolat jarchisi,xalq dilining tarjimoni sifatida maydonga chiqdilar. O‘tkir Hoshimovning “ Ikki eshik orasi ” – yirik ijtimoiy, ma’naviy – axloqiy roman bo‘lib. Asar voqealarining bir uchi 30 – yillar boshiga, qishloqdagi kolxozlashtirish davri voqealariga borib tutashsa, ikkinchi uchi 70 – yillarning oxiriga kelib taqaladi. Shunday bo‘lsada romanning markazida fashizmga qarshi urush davri, urush yillaridagi o‘zbek qishlog‘i hayoti, urush va inson, urushning kishilar taqdiriga ko‘rsatgan chuqur ta’siri, ular qismatida, zurriyotida, dilida qoldirgan jarohatlari muammosi turadi. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umurlar ” romani orqali o‘zbek adabiyotida muayyan an’anaga aylanib qolgan mavzu – muammolar , mustabid tuzum tanqidi, afg‘on urushi, “o‘zbek ishi” qurbonlari haqida bahs yuritadi. “Tushda kechgan umrlar” romanidagi talay personajlar, xususan, bosh qahramon - Rustam va Komissar obrazi yozuvchining zamonaviy adabiyotdagi badiiy kashfiyoti bo‘ldi.

Asosiy qism

Urush mavzusi adabiyot va san’at tarixida muhim o‘ringa ega. “ Batal ” atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib, “ jang ” degan ma’noni anglatadi. Janr sifatida XV – XVI asrlarda shakllangan. Jang ko ‘rinishlari, urush va harbiy hayot lavhalarini tasvirlash batal janrida asosiy o‘rinda turadi. Adabiyotda ham urush va tasvirlari aks ettirilgan asrlar qadimiy tarixga egadir. Buni O‘tkir Hoshimovning “ Ikki eshik orasida “ va “ Tushda kechgan umrlar ” asrlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin.[1]

“Ikki eshik orasi” romani 1986 – yilda nashr ettirilgan va o‘sha yilning eng yaxshi asari deb topilgan. O‘tkir Hoshimov bu nodir asarni butun o‘zbek xalqiga azaliy meros qilib qoldirgan.

Bu asarda 2 – jahon urushi yillarida sodir bo‘lgan voqealar va urushga ketgan farzandining dog‘ida yonib kuygan ona tasviri har bir asar o‘quvchi kishining hissiyotlariniini to‘lqinlantiradi.

Bu asarni o‘qish orqali kishi o‘sha urush fojealarini ko‘rmagan, bilmagan bo‘lsada o‘sha daxshatni tasavvur qila oladi. Bu romandagi asosiy obrazlar: Orif Oqsoqol, Husan Duma, Komil Tabib, Muzzaffar, Robiya, Ra’no, Kimsan hisoblanadi. Asar davomida ikkinchi jahon urushi xalqimizga yetkazgan jabr -u, zulimlari unda aziyat chekkan qanchadan qancha insonlar taqdiri ochib beriladi.

Qora urush ota onalar qalbini jarohatlagani, yosh ko‘ngillarni bir biridan ayirgani ma’alum.

Minglab qurbon bo‘lgan ko‘ngillar, orzular asarda keltirilgan va uzoq o‘ylashga chorlaydi.

Ikkinchi jahon urushida jang maydonida 50 million kishi halok bo‘lgan. Bu 50 million qurbonlarning 20 millioni biznikilar edi. Ular orasida asar qahramoni Qora ammaning o‘g‘li, Robiyaninig sevgilisi Kimsanismli navqiron o‘zbek alpi edi. Asarda Robiya umid bilan Kimsanni kutishi juda tasirli qilib tasvirlanadi.

O‘tkir Hoshimovning fikricha “ Rost bilan yolg‘onning o‘rtasi to‘rt enlik ” bu hammaga qiziq tuyuladi, nega endi ? Ko‘p emas to‘rt enlik ? Bu so‘zning asosiy mohiyati shundaki ko‘z bilan quloqning orasi to‘rt enlik. Inson eshitganiga emas ko‘rganiga ishonishi kerak. Nega aynan bu so ‘zlarni aytgan, asarda shunday vaziyatlar bo‘ldiki, odamlar eshitgan gap so‘zlarini deb insonlar taqdirri o‘yinchoq bo‘ldi. O‘tkir Hoshimov aytadik, bu urush faqat urushda qatnashayotgan jangchilarni hayotiga chang solibgina qolmay tinch yashab yurgan minglab masofalar naridagi insonlarni ham sinovdan o‘tkazdi. Robiya obrazi, urush davridagi jarohatlari butun hayoti davomida bitmadi, faqat yangilandi. O‘tkir Hoshimovning urush mavzusida yozilgan “Ikki eshik orasi” romani haqida yozilgan Umarali Normatovning “ Taqdirlar romani ” maqolasida yozuvchining uslubi, obrazlar yaratish mahorati bilan bir qatorda urush bilan bog‘liq bo‘lgan qahramonlarning o‘ziga xos jihatlari, xarakter sifatlari tahlil qilingan.[2] Asarning asosiy personajlari: Muzaffar, Shomurod, Robiya, Orif oqsoqol, Husan duma, Umar zakunchi, Ra’no, Kimsan singari qahramonlar taqdiri misolida XX asr o‘zbek adabiyotida urush odamlari obrazining tipik xususiyatlari masalasi ham talqin etilgan. T.Rasulovning “ E’tiqotlar romani ” maqolasi ham “ Ikki eshik orasi ” romani haqida bo‘lib, unda romanning axloqiy – didaktik xususiyatlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Asar qahromonlarining ichki nutqlari tahlili vositasida yozuvchining psixologik tasvir mahoratiga ham yuqori baho berilgan.[3]

O‘tkir Hoshimovning kitobxonlar qalbidan joy egallagan asarlaridan yana biri bu “ Tushda kechgan umrlar” asaridir. Bu ramonda voqealar qamrovi juda keng bo‘lib. 30 – yillarning mash’um “qatog‘on” qilish manzaralari, 80 – yillarda Afg‘oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo‘lgan “ o‘zbeklar ishi ” mojarolari yoritib berilgan. Afg‘oniston urushi voqealari tasvirlangan. Adib bu adolatsiz urushning butun fojeasini, g‘ayri insoniyligini tasvirlaydi. Mina portlaganda qo‘li bir tomonga, boshi bir tomonga uchib ketgan yigitning jon taslim qilishi, yurtini sog‘ingan askarning faqat o‘limni tush ko‘rishi, vayron bo‘lgan afg‘on qishloqlarining manzaralari kishi qalbini larzaga solidi. Afg‘on urushi va unda yosh umri xazon bo‘lgan o‘zbek yigitlarining achchiq taqdiri haqida. Afg‘on urushi ishtirokchisi shunday qiyinchiliklarga duchor bo‘ladiki, u bilan birgalikda kitobxon g‘am chekadi, azoblanadi. Romaning “Rustamning kundaligidan” deb nomlangan qismida oddiy askar Xayriddin bosh qahramon Rustamga shunday deydi: “ “Bilasizmi, jo‘ra… o‘ylab qarasam, urush teskari haqiqat, degani ekan. Odam bo‘lging kelsa, shafqatsiz bo‘l. O‘lging kelmasa, o‘ldir. Qiziq – a, jo‘ra…” O‘tkir Hoshimov bu holga o‘zining boshqa bir asari “ Daftar hoshiyasidagi bitiklar ” ning “ Urushlar haqida ” deb nomlangan bobida alohida to‘xtalgan: “ Urushda g ‘olib va baxtli podshoh, g‘olib va baxtli qo‘shin, g ‘olib va baxtli davlat, g ‘olib va baxtli tuzum bo‘lishi mumkin. Ammo g‘olib va baxtli odam bo‘lmaydi. Negaki, urush odamni odam o‘ldirishga majbur qiladi. Odam o‘ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo‘lmaydi!”, yoki “ …Urush, hatto haqiqatning qiyofasini ham teskari qilib qo ‘yadi. Urushda haqiqiat bo‘lmaydi!” deb yozadi. Said Ahmad o ‘zining “Ijod va jasorat” deb nomlangan maqolasida. O ‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar ” romaniga quyidagicha baho beradi: “Romanni loqayd - hayojonsiz o‘qib bo‘lmaydi. Xalq boshiga kulfatdan boshqa narsa solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil – dilidan qarg‘ish yog ‘diradi.”[4]

Adib bua sari orqali Afg‘on urushining inson ruhiyatiga yetkazgan jarohatlari, begunoh insonlarning umriga oilalariga salbiy ta’sir ko‘rsatkanligi ochib berilgan. Roman orqali adib urush tugashi bilan uning oqibatlari ham tugamasligini, ayrim fojialar inson qalbida uzoq vaqt yashashini ta’sirchan ifodalaydi.

Urush – mislsiz ofat, inson jismi va qalbi jarohatidir. U qanchadan – qancha insonlar umri zavoli, orzu – umidlaridan ayirgan falokat. Urush – xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek va jahon adabiyotining yetakchi mavzularidan biri bo‘lib, butun bir xalq, butun bir millatning unga qarshi kurashi xoh u badiiy asrda bo‘lsin, xoh u zamon va makonda bo‘lsin hali hanuzgacha yakuniga yetgani yo‘q. Urush natijasida inson qalbi, ongida ro‘y berayotgan evrilish va o‘zgarishlarning sir – sinoatlarini, sabab – oqibatlarini, jamiyat ravnaqi va zamondosh kamolotidagi o‘rnini ijod ahli badiiy adabiyot olamiga o‘z mahurat kuchi bilan ortiqcha bo‘rtirishlarsiz boricha olib kirdi. O‘tkir Hoshimov so‘zi bilan aytganda “ Urush esa o‘yin emas. Ikkinchi jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi”deb “ Ikki eshik orasi ” asarida to‘xtalib o‘tadi.

“Tushda kechgan umrlar” romani bo‘yicha Umarali Normatovning “ Badiiy kashfiyot” [5], Said Ahmadning “ Qo‘rqinchli tushlar ” kabi maqolalari chop etilgan bo‘lib, ularda romanga yozuvchining badiiy mahorati, qahramon va xarakter, obrazlar tipologiyasi, ijtimoiy hayot tasviri kabi masalalar yuzasidan yondashilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida urush mavzusi bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy tadqiqot, maqola, monografiyalar yaratilgan. Ularda urush mavzusining badiiy adabiyotdagi o‘rni, turli davrlar va mamlakatlar adabiyotida urush odamlari obrazlarning turli talqinlari turli ko ‘rinishda ochib berilgan. O‘tkir Hoshimovning asarlarida milliylik, insonparvarlik, tinchliksevarlik g‘oyalarini o‘z ifodasini topgan. Unining asarlarida muhabbat, milliy o‘zlikni anglash, adolat va haqiqat uchun kurash, johillikning oqibatlari, ona mehri, urushning g ‘ayri insoniy mohiyati kabi masalalar realistic tarzda tasvirlaydi. Yozuvchining badiiy mahorati urush fojeasini turli obrazlar taqdiri, xotira, ruhiy kechinma psixologik tasvir vositalari orqali chuqurlashtirishida namoyon bo ‘ladi. “Ikki eshik orasi” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida urushga munosabat insonparvarlik va hayot qadrini ulug‘lash tamoyillariga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimov o‘z romanlarida jamiyat ijtimoiy hayotidagi illatlarni ochish asosida davrning muhim masalalarini ko‘tarib chiqdi. O‘tkir Hoshimov ijodida urush mavzusi tarixiy voqealarni qayta hikoya qilish bilangina cheklanmaydi. Adib urushning inson qalbida qoldirgan izlarini badiiy tadqiq etadi va o‘quvchini tinchlikning qadriga yetishga undaydi. “ Ikki eshik orasi” hamda “ Tushda kechgan umrlar ” romanlari shu jihatdan o‘zbek adabiyotida urush va uning inson taqdiriga ta’sirini yoritgan muhim asrlar sifatida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarlardagi fojealar orqali yozuvchi bir haqiqatni ta’kidlaydi: urushda g‘olib yoki mag‘lub tomon bo‘lishi mumkin, ammo uning insoniy talofatlari oldida aslida hech kim g‘olib emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (O‘zME) Birinchi jild. – Toshkent, 2000
2. Норматов У. Тақдирлар романи. “Узбекистон адабиети ва саньати”, 1985
3. Эътикодлар романи. “Укитувчилар газетаси”, 1985
4. Ahmad S. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – Toshkent: “SHARQ”, 2000
5. Норматов У. Бадиий кашфийт. “Узбекистон овози” gazetasi, 1996

6. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent – 2002
7. O‘tkir Hoshimov, “ Tushda kechgan umrlar ” romani. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyotva san’at nashriyoti. 2002
8. O ‘tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi” romani, “Ilm – ziyo -zakovat” Toshkent. 2019
9. Pardayev Q. Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2019. – T. 1. – №. 1.
10. Pardaev K. Interpretation of historical events in the work of Mukimi //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 278-283.
11. Pardaev K. MUKIMI’S SOURCE OF LYRICS AND COMPARATIVE ANALYSIS //ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2019. – T. 8. – №. 10. – C. 78-85.